

JAHONDA NORASMIY IQTISODNING DINAMIKASI

Asqarov Ismatullo

Annotatsiya: Xufyona iqtisodiyot (uni norasmiy, kuzatilmagan, yashirin iqtisodiyot deb ham atashadi) insoniyat jamiyatida davlat boshqaruvi shakllanishining dastlabki davrlaridan boshlab mavjud bo'lib, hozirgi vaqtga kelib dunyoning barcha mamlakatlari uchun dolzarb muammoga aylangan.

Kalit so'zlar: norasmiy iqtisodiyot, xufyona izlanishlar, jinoyat, g'ayri iqtisodiy.

Xufyona iqtisodiyotning rivojlanishi miqyoslari har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, undagi ijtimoiy-iqtisodiy holatiga va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish xususiyatlariga bog'liqdir. Shuning uchun har bir mamlakat iqtisodiyotida xufyona iqtisodiyotning o'рни va roli ham turlichadir. Tadqiqotlar va kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, xufyona iqtisodiyotning miqyoslari rivojlangan mamlakatlarda birmuncha kamroq, rivojlanayotgan, shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o'tish maqsadida chuqur islohotlarni amalga oshirayotgan sobiq sotsialistik mamlakatlarda kengdir. Shu boisdan, xufyona iqtisodiyotning mohiyati, vujudga kelish va rivojlanish sabablarini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini, uni ko'lamlarini keskin kamaytirish, unga qarshi kurash masalalarini o'rganish, tadqiq qilish barcha davlatlar uchun dolzarb ahamiyatga ega. Iqtisodiy adabiyotlarda bu masalalar XX asrning 70-yillaridan boshlab ilmiy jihatdan tadqiq etilmoqda. Iqtisodiyot fanida iqtisodiyotning zamonaviy taraqqiyoti xususiyatlari institutsional iqtisodiyot nuqtai nazaridan jamiyatda amal qiluvchi formal va noformal institutlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri sifatida tadqiq qilinmoqda. Shartli ravishda iqtisodiy-huquqiy tadqiqotlarni uch yo'nalishga bo'lib tadqiq etish mumkin:

1) huquqning iqtisodiy nazariyasi (konsepsiyalari) – legal biznes faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalarining iqtisodiy samaradorligini (R.Kouz, R.Pozner va boshq.), hamda huquqiy normalarning xo'jalik amaliyotiga ta'sirini (R.La Porta) o'rganish;

2) xufyona (yashirin) iqtisodiyotni o'rganish – rasmiy hisobkitob va nazoratdan yashirinadigan va ko'pchilik hollarda noqonuniy xarakterga ega xo'jalik faoliyati (E. De Soto);

3) jinoyat va javobgarlikning iqtisodiy nazariyasi – kasbiy faoliyatning alohida turi sifatida jinoyatchilarning faoliyatini, hamda jinoyatchilikni kamaytirishning turli uslublarini samaradorligini o'rganish (G.Bekker va boshq.)¹¹⁰

¹¹⁰ Ayupov, R.X., Baltabaeva, G.R. (2018). Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. –T: Fan va texnologiya. 172 b.

Yashirin iqtisodiyot, xufiya iqtisodiyot — ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to'lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlari. Yashirin iqtisodiyot oshkora payqab bo'lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol jarayonlari — iqtisodiy munosabatlar bo'lib, uning negizida ayrim kishilar yoki kishilar guruhi manfaatlari yotadi. Yashirin iqtisodiyot dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida mavjud.

Norasmiy iqtisod - murakkab ko'p bosqichli hodisa, uning tur va shakllari xilmaxil. Yashirin iqtisodiyot maqsadi, faoliyati va iqtisodiyijtimoiy oqibatlariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi:

1) **jinoiy iqtisodiy faoliyat**. Bu mutlaqo ma'n etilgan, qonun yo'li bilan ta'qib etiladigan ishlar bilan shug'ullanish, mas, narkobiznes, pornobiznes, qurol biznesi va h.k.;

2) g'ayriqonuniy, g'ayriiqtisodiy usullar bilan daromadlarni qayta taqsimlab o'zlashtirib olish, mas, o'g'irlik, bosqinchilik, reket, poraxo'rlik;

3) **ikkilamchi iqtisodiyot** — kishilarga zarar keltirmaydigan, ular uchun naf beradigan, lekin rasman ruxsat etilmagan va davlat ro'yxatidan o'tmagan iqtisodiy faoliyat. Ularga yashirin tadbirkorlik, 1—2 va 5—10 kishi band bo'lgan yashirin kichik korxonalar faoliyati kiradi. Yashirin tadbirkorlik xizmati ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo, kiyimkechak ishlab chiqarishda keng tarqalgan;

4) rasman ruxsat etilgan faoliyat bilan birga qo'shimcha ravishda yashirin ishlab chiqarishga qo'l urish, ochiq ishlaydigan korxonalarda qo'shimcha ravishda hisobga kirmagan mahsulot chiqarib, uni yashirin sotish;

5) mansabni suiiste'mol qilish va korrupsiyaga asoslangan iqtisodiy xatti-harakatlar. Bular jumlasiga davlat idoralaridagi poraxo'rlik, yashirin lobbizm, mansabdan foydalanib subsidiyalar olishni kiritish mumkin;

6) qalbakilashtirilgan iqtisodiy faoliyat, bu iqtisodiyot davlat sektoriga xos bo'lib, davlatni aldashga qaratiladi. Buning eng yaqqol namunasi davlat sektoridagi qo'shib yozishlar, qilinmagan ishlar uchun davlatdan haq olish va boshqalar. Yashirin iqtisodiyotdagi ijtimoiy zararli faoliyat davlat tomonidan qat'iyan taqiqlanadi, hamma choralar bilan unga qarshi kurash olib boriladi, ijtimoiy foydali faoliyatning (norasmiy bo'lsada kishilar talabehtiyojlarini qondiradi) oshkoralikka chiqishi iqtisodiy jihatdan rag'batlantiriladi.

Uning miqyosi yashirin iqtisodiy aylanma, ya'ni ruxsat etilmagan tovar va xizmatlarni yaratish va ularni sotish hajmi bilan belgilanadi. Aylanma xufiyona bo'lganidan uning aniq hisob-kitobi bo'lmaydi. Buning o'rniga uni taxminan baholash usuli qo'llaniladi. Ayrim hisobkitoblarga ko'ra, o'tgan asr oxirlarida Yer yuzidagi yashirin iqtisodiy aylanma 8 trln. dollarga yoki jahon yalpi mahsulotining 27,5% ga teng bo'lgan. Biroq Ya.i. miqyosi turli mamlakatlarda farqlanadi. Yashirin iqtisodiyot eng rivojlangan mamlakatlarga Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlari kiradi. Mas,

1999-yil Misr va Nigeriyada u yalpi ichki mahsulotning 70% ga teng bo'ldi. Yashirin iqtisodiyot hisssasi eng kam bo'lgan mamlakat Osiyoda Yaponiya (1—2%), G'arbiy Yevropada Shveysariya hisoblanadi. MDH mamlakatlarida Yashirin iqtisodiyot darajasi o'rtacha. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, mas, AQSH va Italiyada Yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi hisssasi tegishlicha 6,4 va 11,4% ni tashkil etdi (1997).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kelly K. New Rules for the New Economy: 10 radical strategies for a connected world / K. Kelly. – New York: Viking, 1998.
2. Gulyamov, S.S. va b. (2019). Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. - T.: Iqtisod-Moliya. 396 b.
3. Ayupov, R.X., Baltabaeva, G.R. (2018). Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. –T: Fan va texnologiya. 172 b.